



## DESCRIPTION OF SYMBOLS CHARACTERISTIC OF THE HEAD OF STATE AND RULER IN THE WORK “MUQADDIMAH”

**Shoira Davlatova**

Teacher at Termez State University,  
Doctor of Philosophy (PhD) in historical sciences  
E-mail: [davlatova.shoira@bk.ru](mailto:davlatova.shoira@bk.ru)  
Termez, Uzbekistan

**Shuhrat Qahramonov**

First-year student, Faculty of Law,  
Termez State University  
E-mail: [shuhrat.qahramonov@gmail.com](mailto:shuhrat.qahramonov@gmail.com)  
Termez, Uzbekistan

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Ibn Khaldun, Muqaddimah, state leader, ruler, symbols of power, governance, political thought.

**Received:** 19.04.26

**Accepted:** 20.04.26

**Published:** 21.04.26

**Abstract:** This article analyzes the symbols and characteristics associated with a state leader and ruler described in the work Ibn Khaldun, Muqaddimah. The study examines the political, social, and spiritual meanings of these symbols and their role in the system of state governance. Special attention is given to the qualities of the ruler and the importance of symbols of authority in ensuring political legitimacy and stability in society.

---

## “MUQADDIMA” ASARIDA DAVLAT RAHBARI VA HUKMDORGA XOS BO‘LGAN RAMZLAR TAVSIFI

**Shoira Davlatova**

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi,  
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: [davlatova.shoira@bk.ru](mailto:davlatova.shoira@bk.ru)  
Termiz, O‘zbekiston

**Shuhrat Qahramonov**

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi  
E-mail: [shuhrat.qahramonov@gmail.com](mailto:shuhrat.qahramonov@gmail.com)  
Termiz, O‘zbekiston

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit soʻzlar:** Ibn Xaldun, Muqaddima, davlat rahbari, hukmdor, siyosiy ramzlar, hokimiyat belgisi, davlat boshqaruvi, siyosiy tafakkur.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida davlat rahbari va hukmdorga xos boʻlgan ramzlar, ularning siyosiy, ijtimoiy hamda maʼnaviy mazmuni tahlil qilinadi. Asarda hukmdorlik timsollari sifatida namoyon boʻladigan hokimiyat belgilarining mazmun-mohiyati, ularning davlat boshqaruvidagi oʻrni va ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, hukmdor shaxsiga xos sifatlar, hokimiyat ramzlarining jamiyatdagi legitimlik va siyosiy barqarorlikni taʼminlashdagi roli ham tahlil qilinadi.

---

**ОПИСАНИЕ СИМВОЛОВ, ХАРАКТЕРНЫХ ДЛЯ ГЛАВЫ ГОСУДАРСТВА И ПРАВИТЕЛЯ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «МУКАДДИМА»****Шоира Давлатова**

*Преподаватель Термезского государственного университета,*

*доктор философии (PhD) по историческим наукам*

*E-mail: [davlatova.shoira@bk.ru](mailto:davlatova.shoira@bk.ru)*

*Термез, Узбекистан*

**Шухрат Кахрамонов**

*Студент 1 курса юридического факультета*

*Термезского государственного университета*

*E-mail: [shuhrat.qahramonov@gmail.com](mailto:shuhrat.qahramonov@gmail.com)*

*Термез, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Ибн Халдун, Мукаддима, государственный лидер, правитель, символы власти, государственное управление, политическая мысль.

**Аннотация:** В данной статье анализируются символы и признаки, присущие государственному лидеру и правителю, описанные в произведении Ибн Халдун - Мукаддима. Рассматривается их политическое, социальное и духовное значение, а также роль символов власти в системе государственного управления. Особое внимание уделяется характеристике личности правителя и значению символов власти в обеспечении легитимности и политической стабильности государства.

---

**Kirish.** Oʻrta asrning buyuk olimi, faylasufi va mutafakkiri Abdurahmon ibn Muhammad ibn Xaldunning ilmiy qarashlari hamda merosi hozirda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Ibn

Xaldun o‘zining “Muqaddima” asarida jamiyat va davlat masalalarini o‘rta asr islom dunyosi sharoitida ilmiy tahlil qilgan tarixchi hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** “Muqaddima” asari Said Komil Muhammad Karim tomonidan arabchadan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Asarning II jildidagi III-bob 34-fasli “Davlat rahbari va hukmdorga xos bo‘lgan ramzlar” deb nomlanadi. Tarixiy taraqqiyotdan ma‘lumki, azal-azaldan har bir davlatning boshqa davlatdan ajratib turuvchi belgi sifatida qabul qilingan davlat ramzlari bo‘lgan. Ushbu asarda Ibn Xaldun o‘zi yashagan davrda ayrim davlatlarda hukmdorlar tomonidan qabul qilingan, davlat ramzi sifatida foydalanib kelingan ana shunday belgilar haqida fikr yuritadi, ulardagi ranglarni tavsiflaydi, har bir ramzdan qanday holatda, qanday maqsadlarda foydalanilganligini tushuntirishga harakat qiladi. U hukmdorning shon-shuhratini talab qiladigan alomati, qiyofasi, ramzlari, nishonlari majudligini, hukmdor bu belgilardan doim foydalanishi, shular orqali o‘z fuqarolari, davlat amaldorlari va siyosiy yetakchilardan ajralib turishini ta’kidlaydi. Uning ushbu manbada keltirgan fikriga ko‘ra, ramzlarning eng mashhuri harbiy orkestr va bayroq hisoblanadi. Bu haqida asarda “Hukmdorlikning ramzlaridan biri ustunli bayroqlarni ko‘tarish, dovul urish, karnay va burg‘u chalish. Hukmdorlar o‘z yurishlarida foydalanish uchun shu kabi asbob-uskunalarini tayyorlatadilar”, deyiladi [3].

**Muhokama va natijalar.** Ibn Xaldun asarda davlat rahbari bilan bog‘liq musiqiy marshlar va imperator musiqasini tavsiflab beradi. Uning mohiyatini tushuntirishda Arastuning “Siyosat” asarida keltirilgan fikrlarni ushbu manbada shunday bayon etadi va musiqiy marshlarning maqsadini shu orqali ta’riflaydi: “... musiqiy marshlardan maqsad – urushda dushmanni qo‘rqitish. Chunki baland va dahshatli tovushlarning inson ruhiga dahshatli ta’siri ta’siri bo‘ladi” [3].

Muallifning tahlilicha musiqa tovushi inson qalbi, uning ruhiyati va kayfiyatiga ham ta’sir qiladi, musiqadan quvonch va jo‘shqinlikni his qilish mumkin. Og‘ir musiqa insonning har qanday faoliyatiga ta’sir ko‘rsatib, og‘ir ishlarni oson bajarilishiga ko‘maklashadi. Shu bois arab bo‘lmagan xalqlar janglarda dovur va burg‘ular kabi musiqa asboblardan foydalanganlar. Orkestr musiqa asboblari bilan qo‘shin ichida turgan hukmdor atrofida saf tortib turganlar va marsh musiqalarini chalib, qahramonlarni jonlarini fido qilishga ruhlantirganlar. U jamiyat hayotida jonzotlarni kuzatganligidan kelib chiqib, musiqa tovushi nafaqat insonlarga, balki jonzotlarga ham ta’sir etishini quyidagi misralar orqali izohlaydi: “Bu faqat insonga xos narsa emas, balki hayvonlarda ham kuzatiladi. Masalan, tuyalar hud’a (maxsus ritmik qo‘shiq) bilan tezroq yurishga harakat qiladi, otlar esa hushtak va qichqiriqlar bilan jo‘shqinlashadi. Agar bunday tovushlar muvofiq ohangda bo‘lsa, aynan qo‘shiq va musiqaga o‘xshasa, ta’siri yanada kuchayadi” [2].

“Muqaddima” asaridagi ma’lumotlarda aytilishicha, arablarning janglarida saf tortgan qo‘shin qatori oldida shoirlar turib she’rlar o‘qishgan, Mag‘ribdagi Zanata qabilasida jang oldidan maxsus shoir saf oldiga chiqarilib, she’rni musiqaga solib aytish tartibi mavjud bo‘lgan. Bu harbiy qo‘shiq nomi “tazugait” deb atalib, bunday qo‘shiqlar “tog‘larni joyidan qo‘zg‘atib”, askarlarni jasurligi va shijoatini faollashtirgan. Bundan maqsad mardonavor, vatanparvarlikka undovchi she’rlar orqali askarlarga xush kayfiyat, xursandchilik ulashish orqali jangga da’vat qilish bo‘lgan [1].

Ibn Xaldun davlat va harbiy qo‘shinlar uchun bayroqning ahamiyati haqida fikr yuritib “Ustunli bayroqlarning sonini ko‘paytirish, ularning rang-barang va uzun qilishdan maqsad ham dushman saflarida qo‘rquv uyg‘otish bo‘lgan. Bayroqlarni bu tarzda ishlatish bilan janglarda yanada ko‘proq jasurlik uyg‘otishi mumkin. Chunki inson ruhining turli holat va shakllarga kirishi juda ajablanarlidir”, “Ko‘pincha mahalliy hokim yoki qo‘shin qo‘mondonlariga Abbosiy va Fotimiy hukmdorlar bayroq topshirardi. Bayroq olgan shaxs yuborilgan yoki tayinlangan joylarga yo‘l olish uchun hukmdorning saroyidan yoki o‘z uyidan qo‘lida bayroqlar va harbiy orkestr bilan yo‘lga chiqar edi. Hukmdor bilan hokimning atrofidagi jamoat faqat bayroqlarning miqdori bilan yoki hukmdorning bayrog‘iga xos bo‘lgan rang bilan boshqalardan farqlangan”, deya ta’kidlaydi [3].

Manbada yozilishicha, Abbosiylarning bayrog‘ida qora rang ishlatilgan. Bu rang ularning Ummaviylar tomonidan o‘ldirilgan Hoshimiy shahidlariga bo‘lgan qayg‘usini ifodalagan, shu bois ular “Musavvida” (ya’ni “qora bayroqlilar”) deb atalgan.

Asarda “Hoshimiylar orasida kelishmovchilik yuzaga kelib, Abu Tolib avlodlari (Alaviylar va shialar) har davr va har hududda Abbosiylarga har tomonlama muxolif bo‘lish uchun o‘z bayroqlarini oq rangda qildilar. Shu sababli ular “mubayyiza” (“oq bayroqli”) deb nom olgan” liklari ham bayon etilgan.

Ibn Xaldun Fotimiylar boshqaruvi davrida isyon qilgan alaviylarning Tabariston (zaydiylar) va Yamandagi Sanaa da’vatchilari hamda ularning ichidagi qarmatiylar kabi rofiziylar e’tiqodiga da’vat qilganlar ham oq bayroqlardan foydalanganliklari, Xalifa Ma’mun qora kiyim kiyishdan va qora rangning davlat ramzi bo‘lishidan voz kechib, yashil rangdan foydalanishga o‘tganligi va buning natijasida uning bayrog‘i ham yashil rangda bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi. Yana bayroqlar xususida “Mag‘ribdagi Sinhoja va boshqa barbar qabilalaridan bo‘lgan hukmdorlar biror aniq rangga bog‘lanib qolmay, bayroqlarini sof ipakdan turli ranglarda yasatdilar va tilla yulduz bilan bezadilar. Muvahhidlar va undan keyin Zanatalar davrida dovul va bayroq kabi asboblardan faqat sulton uchun maxsus qilindi. Boshqa amaldorlarga ulardan foydalanish ta’qiqlab qo‘yildi.

Ushbu asboblardan uchun sultonning ortidan maxsus jamoa (kortej) tashkil etildi va unga “Soqa” deb nom berildi. Bu borada turli davlatlar turlicha yondashdi va shunga ko‘ra soqadagilarning soni ham turlicha bo‘ldi. Ba‘zilar yetti sonini barakali deb hisoblab, orkestrdagilarni yetti nafar etib tayinladi. Muvahhidlar davlati va andalusiyadagi Banu Ahmar davlati shunday yo‘l tutdi. Boshqalar esa o‘nta yoki yigirmata bayroq ishlatardi”, deyiladi [4].

“Muqaddima” da XIV asrda Sharqda hukmronlik qilayotgan turk davlatlari bayroqlarining tuzilishi to‘g‘risida ham bir qancha ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, turk davlatlari uchida katta tug‘i bo‘lgan katta bayroqdan foydalanilganligi, u “sholish” yoki “chetr” deb atalishi, turk hoqonlarining boshi uzra olib yuriladigan yana bir bayrog‘i bo‘lganligi, u “isoba” yoki “shatfa” deb nomlanishi, vazirlarga undan foydalanish ta‘qiqlanganligi, bu bayroq sultonlarning ramzi hisoblanib, urushlarda ham undan foydalanilganligi, keyinchalik bayroqlar ko‘payib, ular “sanjoq” (sanojiq) deyilganligi, har bir amir yoki harbiy qo‘mondon “kuvsot” (ko‘s, mehtar) nomli bayroqlarni ishlatganliklari qayd etilgan.

Asarda XIV asrda Andalusiyadagi farang xalqlari bo‘lgan gallar osmonga tikka ko‘tarilgan bayroqlardan kam foydalanganliklari, tanbur va burg‘u kabi puflab chalinadigan, torli yoki nafasli asboblardan foydalanganliklari, jang paytida ushbu cholg‘ular bilan ritmli musiqa chalib, o‘z urush ohanglarini yaratganliklari haqida ham muhim ma‘lumotlar uchraydi [5].

Mazkur manbada Ibn Xaldun yashagan davrda ba‘zi arab davlatlarida hukmdorlarning amal kursilari, taxtlari, minbar va supalari, ularning nimalardan yasalganligi, mazkur predmetlardan foydalanish borasida ham ayrim jihatlar haqida yozib qoldirgan. Jumladan, “Islom tarixida taxtni birinchi bo‘lib Muoviya joriy qilgan. U xalqdan bu borada ruxsat so‘rash uchun ularga faqatgina “Men semirib qoldim”, – deya vaj ko‘rsatgan va xalq ham bunga rozi bo‘lgan. Shundan keyin u taxtga o‘tirgan, undan keyingi musulmon hukmdorlari ham unga ergashganlar. Shu tariqa taxt hashamat va shon-shuhratni ifodalovchi unsurlardan biriga aylangan” [3].

Taxt, minbar, supa va kursi o‘rindiqlik hisoblanib, hukmdorning o‘tirishi uchun mo‘ljallangan, yog‘ochdan yasalgan. Hukmdor lavozimiga ko‘ra majlisda odamlardan balandroq joyda o‘tirishi lozim, deb hisoblangan. Bunday tartib islomdan avvalgi hukmdorlar va arab bo‘lmagan xonadonlarda an‘ana bo‘lgan. Muallifning izohicha, “Ular oltindan yasalgan taxtlarga o‘tirar edilar. Sulaymon ibn Dovud ham fil shoxidan yasalgan, sirti oltin bilan bezatilgan kursi va taxtga ega bo‘lgan. Biroq taxtdan faqat kuchaygan va farovonlikka erishgan davlatlardagina foydalanilgan. Bu shon-shuhrat (dabdaba) bilan bog‘liq odatlar.

Ibn Xaldun Misrda taxt bilan aloqador tartiblar to‘g‘risidagi ba‘zi bir holatlarni tavsiflab, Amr ibn Os o‘z saroyida arablar bilan yerga o‘tirib majlis qilganligi, uning huzuriga misrliklar

hokimi Muqavqis kelgan vaqtida u bilan birga uning oltindan yasalgan taxtini ham olib kelish kerakligi, hokim shu olib kelingan taxtda, Amr ibn Os esa uning qarshisida yerda o'tirganligini yozib qoldirgan [2].

Bulardan tashqari "Muqaddima" da "Arablar dabdabaga e'tiborsizligi va Muqavqis bilan tuzilgan zimmiylik ahdi tufayli uning bunday harakatidan behuzur bo'lmasdilar. Keyinchalik Abbosiylar, Ubaydiylar va boshqa sharq va g'arbdagi musulmon hukmdorlarida Fors kisrolaridan va Rum sezarlaridan qolgan taxtlar, minbarlar va supalarni o'z saroylariga kiritdilar" singari ma'lumotlar ham o'z aksini topgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, Ibn Xaldun o'z davrining faylasufi sifatida arab va arab bo'lmagan xalqlar davlatchiligida XIV asrda hokimiyat boshqaruvi, hukmdorlarning o'z davlatlari uchun muhim va zarur deb hisoblagan davlat belgilari, ularning o'ziga xosligi, bir-biridan farqli tomonlari haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar qoldirgan. Uning "Muqaddima" asaridagi davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalariga oid g'oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unda keltirilgan fikrlar orqali o'sha davr davlatlari, davlat ramzlari, hukmdorlari haqida bilimlarga ega bo'lish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Garaudy R. Pour un dialogue des civilisations. L'Occident est un accident. Paris, 1977.
2. Hotamiy Sayid Muhammad. Islom tafakkur tarixi. – Toshkent: "Minhoj", 2003.
3. Ibn Xaldun. Muqaddimat Ibn Xaldun. – Bayrut: Maktaba Lubnon, 1992.
4. Lacoste I. Ibn Khaldoun. Naissance de l'histoire passee du Tiers-Monde. Paris, 1966.
5. Феоктистов А. М. Проблемы культурно-исторического процесса в социально-экономическом учении Ибн-Халдуна. – «Проблемы философии». – Киев. 1977.